

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета
Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории
Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового
администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт
проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

O'zbekiston aksiyalar bozorining global bozorda tutgan o'rnini

Alikulov Azamat Tuygunovich

Роль Узбекского фондового рынка на мировом рынке

Аликулов Азамат Туйгунович

The role of the Uzbek stock market in the global market

Alikulov Azamat Tuygunovich

Received: September 7, 2025 Revised: September 10, 2025

■ Accepted: September 13, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya:** Maqola 2020–2024 yillarda O'zbekiston aksiyalar bozorining dinamikasi va uni xalqaro tajriba bilan qiyoslashga qaratilgan. Kapitalizatsiya va uning YaIMga nisbati o'sish sur'atlarini ko'rsatgan bo'lsa-da, listingdagi kompaniyalar sonining kamayishi kuzatiladi. AQSh, Yaponiya, Koreya, Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlar bilan qiyosiy tahlil natijasida milliy bozorning ustun va zaif jihatlari aniqlangan. Shuningdek, investorlar bazasining torligi, korporativ boshqaruvning yetarli darajada shakllanmaganligi va infratuzilmaviy cheklovlar muammolari yoritilgan. Xulosa qismida bozorni rivojlantirish uchun IPO va xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirish, institutsional investorlarni keng jalb etish, elektron savdo tizimlari hamda korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.
- **Kalit so'zlar.** aksiyalar bozori, kapitalizatsiya, savdo hajmi, likvidlik, turnover ratio, listing kompaniyalar, qiyosiy tahlil, IPO, xususiyashtirish, korporativ boshqaruv, investitsion infratuzilma, institutsional investorlar, regulyator.
- **Аннотация:** Статья посвящена анализу динамики фондового рынка акций Узбекистана в 2020–2024 гг. и его сопоставлению с международным опытом. Несмотря на рост капитализации и её соотношения с ВВП, наблюдается сокращение числа компаний, включённых в листинг. Сравнительный анализ с США, Японией, Кореей, Россией, Казахстаном и другими странами позволил выявить сильные и слабые стороны национального рынка. Кроме того, освещены проблемы узкой базы инвесторов, недостаточного уровня корпоративного управления и инфраструктурных ограничений. В заключении предложены меры по развитию рынка: ускорение процессов IPO и приватизации, расширение участия институциональных инвесторов, совершенствование электронных торговых систем и стандартов корпоративного управления.
- **Ключевые слова:** фондовый рынок акций, капитализация, объём торгов, ликвидность, turnover ratio, листинговые компании, сравнительный анализ, IPO, приватизация, корпоративное управление, инвестиционная инфраструктура, институциональные инвесторы, регулятор.

- **Abstract:** The article is devoted to analyzing the dynamics of Uzbekistan's stock market in 2020–2024 and its comparison with international experience. Despite the growth of capitalization and its ratio to GDP, a decline in the number of listed companies is observed. A comparative analysis with the USA, Japan, Korea, Russia, Kazakhstan, and other countries has revealed the strengths and weaknesses of the national market. In addition, the problems of a narrow investor base, insufficient corporate governance, and infrastructural limitations are highlighted. The conclusion provides recommendations for market development, including accelerating IPO and privatization processes, expanding the participation of institutional investors, and improving electronic trading systems and corporate governance standards.
- **Keywords:** stock market, capitalization, trading volume, liquidity, turnover ratio, listed companies, comparative analysis, IPO, privatization, corporate governance, investment infrastructure, institutional investors, regulator.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining muhim infratuzilmasidan biri – bu moliya bozori bo'lib, aksiyalar bozori uning asosiy segmenti hisoblanadi. Aksiyalar bozori kapitalning erkin aylanishini ta'minlaydi, investitsiya oqimlarini rag'batlantiradi va korxonalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda qimmatli qog'ozlar bozori, xususan aksiyalar bozorini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2020–2024 yillar davomida Toshkent fond birjasida aksiyalar bo'yicha umumiy kapitalizatsiya hajmi qariyb 3,6 barobarga o'sdi, YaIMga nisbatan ulushi 16,4% ni tashkil etdi [1]. Taqqoslash uchun, 2024-yilda Qozog'istonda ushbu ko'rsatkich 21,8% ni, Rossiyada (2023-yilda) esa 31,4% ni tashkil etdi, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich ancha yuqori: masalan, AQShda 213,1%, Yaponiya va Koreyada 100% dan ortiq [2]. Shuningdek, aksiyalar savdosi aylanma koeffitsienti (turnover ratio) ham O'zbekistonda 7,9% darajasigacha ko'tarilgan bo'lsada, Yaponiyada 117%, AQShda esa 68% dan yuqori ekanini kuzatiladi [3]. Bu esa mamlakatimiz fond bozorining nafaqat hajm, balki likvidlik jihatidan ham sezilarli orqada ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda aytish mumkinki aksiyalar bozorini har tomonlama chuqur o'rganish, rivojlanish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash va mavjud muammolarni aniqlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Chunki, rivojlangan aksiyalar bozori moliya tizimining barqarorligini ta'minlabgina qolmay, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, xususiylashtirish jarayonini shaffof o'tkazish hamda xorijiy investorlarni jalb etishda asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiyalar bozorining rivojlanganlik darajasini o'rganishda

turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, xalqaro mezonlar bilan taqqoslash va statistik-ekonometrika usullaridan foydalanishga asoslanadi. Ushbu tadqiqotda ham milliy, ham xorijiy olimlarning ilmiy ishlari metodik asos sifatida qo'llanildi. Xususan, quyidagi mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi:

O. Alimov va F. Mukhamedovlar o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda aksiyalar bozorining iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilib, bozor hajmining pastligi investitsiya oqimlari uchun to'siq bo'layotgani ta'kidlangan. Mualliflar kapital bozorini modernizatsiya qilish va institutsional investorlar sonini oshirish zarurligini ko'rsatib o'tishgan [4].

J. Butaev ilmiy ishlarida milliy fond bozoridagi mavjud muammolar, xususan, past likvidlik, axborot shaffofligining yetarli emasligi va korporativ boshqaruvdagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan [5].

A. Ro'ziqulov esa ikkilamchi bozor faoliyatini tahlil qilib, savdo hajmi va emitentlar sonining o'sishiga qaramay, ularning xalqaro talablar darajasidan pastligini ko'rsatgan. Bu esa investorlarning bozorga bo'lgan qiziqishini cheklab qo'yishi mumkinligini ta'kidlaydi [6].

Shuningdek, quyidagi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi:

D. Levine va R. Zervoslarning klassik tadqiqotida aksiyalar bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan. Xususan, kapitalizatsiya/YaIM va savdo aylanmasi ko'rsatkichlari iqtisodiy taraqqiyotning muhim indikatorlari sifatida taklif etilgan [7].

M. Demirgüç-Kunt va R. Levine ilmiy ishlarida aksiyalar bozorining rivojlanganlik darajasini baholashda likvidlik, bozor hajmi va investorlar ishtiroki kabi mezonlarni asosiy indikator sifatida belgilashgan. Ularning fikricha, bozor hajmining kengayishi moliyaviy vositachilik tizimining samaradorligini oshiradi [8].

Chakraborty esa rivojlanayotgan davlatlar misolida olib borgan tadqiqotida aksiyalar bozorining rivojlanishiga siyosiy

barqarorlik, huquqiy muhit va iqtisodiy erkinlik darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [9].

TAHLIL VA NATIJLAR

AQSh fond bozori dunyodagi eng yirik va eng likvid bozor hisoblanadi. 2024-yilda Nyu-York fond birjasi (NYSE) va NASDAQ birjalarida umumiy bozor kapitalizatsiyasi 62 trillion AQSh dollaridan oshdi, bu mamlakat YalMining qariyb 213% ini tashkil etdi [2]. Bozor yuqori darajada rivojlangan bo'lib keng qamrovli institutsional investorlar (pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari), samarali axborot oshkoraligi va regulatsiya tizimi (SEC nazorati), ilg'or raqamli texnologiyalar asosida elektron savdolar orqali savdolar tashkil etiladi.

Yevropa mintaqasida Buyuk Britaniya va Germaniyada eng rivojlangan aksiyalar bozori yuqori darajada rivojlangan. Masalan, 2024-yilda London fond birjasida kapitalizatsiya hajmi YalMganisbatan 83,8% [10] darajasida, Germaniyada esa

bu ko'rsatkich 43,9% atrofida [3]. Yevropada transchegaraviy integratsiya kuchli rivojlangan bo'lib xalqaro standartlar (IFRS) asosida moliyaviy hisobot yuritish majburiyligi hamda aksiyalar bozorini bank tizimi bilan muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritishi savdo jarayonlarini tashkil etishda yuqori darajada qulaylik yaratadi.

Osiyo mamlakatlari oxirgi o'n yillikda fond bozorlari rivojida yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, 2024-yilda Yaponiyada aksiyalar kapitalizatsiyasi YalMga nisbatan 156% dan yuqori, bozorning barqarorligi esa uzoq yillik korporativ boshqaruv an'analari bilan bog'liq. Janubiy Koreyada esa bozor kapitalizatsiyasi 2024-yilda 90,4% [10] ga teng bo'lgan va innovatsion texnologiyalar asosida elektron savdo tizimlari joriy etish tendensiyalari yuqori. Xitoy fond bozori esa jadal rivojlanib, 2024-yilda kapitalizatsiya hajmi 11 trillion AQSh dollaridan YalMdagi ulushi esa 62 %dan oshdi. Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan bosqichma-bosqich liberallashtirish va chet ellik investorlar uchun kvotalar joriy etish bozorni jadal kengaytirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval.

O'zbekistonda aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024)

YIL	KAPITALIZATSIYA (MLN. \$)	KAPITALIZATSIYA /YAIM (%)	SAVDO AYLANMASI (MLN. \$)	MAHALLIY AKSIYALAR AYLANMASI (%) (TURNOVER RATIO)	LISTINGGA KIRGAN KOMPAINIYALAR SONI
2020	5 230,00	7,9	48,8	0,9	144
2021	5 194,00	6,7	105,9	2	135
2022	8 426,80	9,4	419,2	5	107
2023	13 721,6	13,4	212,4	1,5	112
2024	18 799,6	16,4	1 484,70	7,9	89

Manba: uzse.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak O'zbekistonda bozor kapitalizatsiyasi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 3,6 barobarga oshganligining hamda YalMga nisbatan 8,5 foizga oshganligining guvohi bo'lish mumkin. Bu esa oxirgi yillarda fond bozorining kapitalizatsiyasi barqaror o'sayotganligidan hamda mamalakat iqtisodiyotida fond bozorining ulushi ortayotganligidan dalolat beradi. Savdo aylanmasi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lib 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 30 barobardan ziyodga oshgan

bo'lib bozor likvidligi va faolligi yuqori darajada oshganligini ko'rsatadi.

Kapitalizatsiya va savdo hajmi oshayotgan bo'lsa-da, listingga kirgan aksiyalar soni listing talabalarining oshishi va ushbu talablarga javob berish masalasida kamaygan. Bu shuni anglatadiki, yirik kompaniyalar asosiy o'sishni ta'minlayotganligi hamda ushbu kompaniyalar, nisbatan kichik kompaniyalar esa fond bozorida kamroq ishtirok etayotganligidan dalolat beradi.

2-jadval.

Ba'zi mamlakatlarda aksiyalar bozori ko'rsatkichlari (2024)

Mamlakatlar	Kapitalizatsiya (mlrd \$)	Kapitalizatsiya /YaIM (%)	Savdo aylanmasi (mlrd. \$)	Mahalliy aksiyalar aylanmasi (%) (Turnover ratio)	Listinga kirgan kompaniyalar soni
O'zbekiston	18,8	16,4	1,5	7,9	89
Qozog'iston	62,82	21,8	456,52	0,7	79
Rossiya	650,49*	31,4*	214,43*	33*	194*
Korea	1560	114,9*	3130	200,8	2599
AQSh	62190	213,1	42600	68,5	4010
Yaponiya	6310	156,7	7380	117	3971
Azarbayjon	1,64	2,2	0,007	0,4	36
Turkiya	378,96	28,6	959,19	253,1	551
Malaysiya	449,47	106,5	165,92	36,9	1031

Manba: Jahon banki. *Ma'lumotlar 2023-yilga tegishli

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda bozor kapitalizatsiyasi Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarnikidan juda past, lekin YaIMga nisbati Markaziy Osiyodagi ko'plab mamlakatlarga qaraganda yaxshiroq. Bu shundan dalolat beradiki, O'zbekiston bozor kapitalizatsiyani oshirishi umumiy bozor holati bilan ham bog'liq. Ya'ni mamalakatning iqtisodiy o'sishi fond bozorining o'sishiga turtki berishi mumkin.

O'zbekistonning fond bozori hajm jihatidan hali kichik, savdo faolligi past, lekin potensial jihatdan ijobiy o'sish imkoniyatlariga ega. Buning uchun likvidlikni oshirish, investorlarni jalb etish, IPO va xususiyashtirish dasturlarini faol davom ettirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda aksiyalar bozorining rivojlanishi ijobiy dinamikaga ega, biroq xalqaro mezonlarga ko'ra hali yetarlicha rivojlanmagan hisoblanadi. Xalqaro tajribalardan O'zbekiston uchun AQSh modeli - shaffoflik va investorlarni himoya qilishni kuchaytirish orqali bozor likvidligini oshirish imkoniyatlarini yaratsa, Yevropa modeli transchegaraviy integratsiya va standartlashtirilgan moliyaviy hisobotlarga (MXXS) o'tish zarurati borligini ko'rsatadi. Osiyo modeli esa bosqichma-bosqich islohotlar va texnologik innovatsiyalarni aksiyalar bozoriga tadbqiq etsih bozorning tezkor

rivojlantirishga olib kelishiga yordam beradi.

Bozorni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishimiz maqsadga muvofiq:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish va IPO jarayonlarini tezlashtirish;
2. Institutsional investorlar — pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarini rivojlantirish;
3. Korporativ boshqaruv standartlarini kuchaytirish;
4. Aloqa tizimlari hamda zamonaviy savdo platformalarini rivjlantirish;
5. Xorijiy investorlarga qulay sharoit yaratish, reguliator va axborot manbai masalalarini hal etish muhim hisoblanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Alikulov Azamat Tuygunovich Axborot texnologiyalari va menejment universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, PhD, dotsent / Аликулов Азамат Туйгунович Заведующий кафедрой «Экономика» Университета информационных технологий и управления, PhD, доцент / Alikulov Azamat Tuygunovich Head of the Department of "Economics" of the University of Information Technologies and Management, PhD, Associate Professor

► azamat1441@mail.ru

■ ORCID: 0000-0001-7717-3274

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Toshkent Respublika Fond birjasi. Yillik hisobotlar (2020–2024). <https://www.uzse.uz>
- [2]. World Bank — World Development Indicators (WDI). Market capitalization (% of GDP), Turnover ratio (%). <https://data.worldbank.org>
- [3]. TheGlobalEconomy.com — Stock market indicators for selected countries. <https://www.theglobaleconomy.com>
- [4]. Alimov, O., & Mukhamedov, F. (2021). The Stock Market in Uzbekistan as the Backbone of Country's Economic Development. SSRN.
- [5]. Butaev, J. I. (2023). Actual Analysis of Uzbekistan's Stock Market: Problem, Solution and Suggestions. International Journal of Research.
- [6]. Ro'ziqulov, A. (2023). O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori: hozirgi holat tahlili. Finance and Banking Journal.
- [7]. Levine, R., & Zervos, S. (1998). Stock Markets, Banks, and Economic Growth. American Economic Review, 88(3), 537–558.
- [8]. Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2001). Financial Structure and Economic Growth: A Cross-Country Comparison. MIT Press.
- [9]. Chakraborty, I. (2012). Institutions, Economic Reforms and Stock Market Development: Evidence from Emerging Economies. Economic Modelling, 29(3), 1025–1034.
- [10]. www.ceicdata.com
- [11]. Narmamatov, I. B. (2024). OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE PAYMENT SYSTEM THROUGH ENHANCEMENT OF MONETARY POLICY. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 254-258.
- [12]. Aminov, F. B. (2023). Living Standard of Population in Uzbekistan. International Journal of Scientific Trends, 2(10), 40-46.
- [13]. Ma'ruf, A., & Tilovbek, S. (2024). THE ROLE OF SOCIAL SECURITY CONTRIBUTIONS IN PENSION PROVISION. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(05), 51-56.

Inson kapitali
iqtisodiyoti

Экономика
человеческого
капитала

Economics of
human capital